



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil yanvar-iyun

## RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 1163,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 217,9 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1395,5 ming. so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushining oshishiga olib keldi.


2019-yil yanvar-iyun oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1163,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,3 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (30,6 %) tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



## 2019-yil yanvar-iyun oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida oldingi yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (67,5 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (23,8 mlrd. so'mga) va moliyaviy xizmatlar (155,1 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

## 2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1 163,1</b>	<b>123,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	70,5	110,1
Moliyaviy xizmatlar	281,6	217,9
Transport xizmatlari	194,5	103,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>184,7</i>	<i>102,8</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	26,8	106,5
Savdo xizmatlari	356,3	110,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	30,4	102,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	47,3	111,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	17,4	108,8
Ijara xizmatlari	22,1	86,3
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	31,5	105,1
Shaxsiy xizmatlar	28,6	102,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	14,9	103,5
Boshqa xizmatlar	41,2	116,7

**2019-yil yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1163,1</b>	<b>123,3</b>
<i>shaharlar</i>		
Guliston shahri	612,7	136,6
Shirin shahri	14,7	110,8
Yangiyer shahri	80,6	108,4
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	48,5	109,3
Guliston tumani	35,8	108,0
Mirzaobod tumani	53,7	111,9
Oqoltin tumani	27,1	111,9
Sardoba tumani	35,9	98,7
Sayxunobod tumani	74,2	133,0
Sirdaryo tumani	135,7	108,6
Xovos tumani	44,2	109,6

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

### 2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




2019-yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (217,9 %), boshqa xizmatlar (116,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (111,3 %) hamda savdo xizmatlari (110,3 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Tumanlar o'rtasida Guliston shahri (612,7 mlrd. so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 136,6 % ni tashkil etdi.


Eng kichik hajm Shirin shahrida (14,7 mlrd. so'm), Oqoltin (27,1 mlrd. so'm) va Guliston tumanlarida (35,8 mlrd. so'm) kuzatildi.

2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, 2019-yil yanvar-iyun oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (136,6 %), Sayxunobod (133,0 %) va Mirzaobod (111,9 %) tumanlarida qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



## 2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining ulushi, %




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 356,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 67,5 mlrd. so'mga oshdi.

### 2019-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar kata salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 64,7 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 29,9 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,4 % ni egallaydi.



Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 281,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 217,9 % ni tashkil etdi.


### 2019-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (92,2 %) katta salmoqqa egadir.

2019-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 26,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 106,5 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,7 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,3 % ga to'g'ri keldi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar avvalombor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019-yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 47,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi.


### Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 12,7 mlrd. so'mga oshdi.

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-iyun oylarida 1395,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 321,7 ming so'mga oshdi va o'sish sur'atlari 121,1 % qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm.




Tuman va shaharlar o'rtasida Guliston shahri (6852,8 ming. so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 135,2 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (379,8 ming. so'm), Xovos (469,6 ming. so'm) va Guliston (504,7 ming. so'm) tumanlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, 2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (135,2 %), Sayxunobod (130,7 %) va Oqoltin (110,2 %) tumanlarida qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel: (71) 230-86-31